



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZLASHTIRISH FAOLIYATINI TA'MINLASHNING USTIVOR VAZIFALARI

Muallif: Z.T.Xasanova¹

Affiliatsiya: Navoiy innovatsiyalar universiteti, Sho'rchi filiali, Oliy toifali o'qituvchi-defektolog¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14513047>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish faoliyatining ustivor vazifalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: sinf, boshlang'ich sinf, ta'llim, o'quvchi, faoliyat, sabab, tahlil, maktab, aqliy tarbiya.

Bugungi kunda xalq talim tizimi, o'quv- tarbiya jarayoni o'z taraqqiyotining shunday ma'suliyatli davrga kirdiki, endilikda bu ishni nazariy qurollanib yuksak pedagogik mahorat bilan amalga oshirish kerak bo'ladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun har bir pedagog o'z ishining obyekti bo'lgan bolaning aqliy va jismoniy qobiliyatini, yashash muhitini atroflicha bilish talab qilinadi. Har bir o'quvchining fanlarni yaxshi o'zlashtirishi uchun normal aqliy taraqqiyot, jismoniy barkamolligi va boshqa shart-sharoitlar muhim ahamiyatga egadir. Jumladan, bolaning aqliy va axloqiy taraqqiyoti nasliy qobiliyati natijasiga ko'p jihatdan bog'liq.

Bolaning normal o'sishi uchun quyidagi shart-sharoitlar bo'lishi lozim:

1. Bosh miya yarim sharining normal ishlashi;

- sezgi organlarimiz orqali keladigan impluslarni markaziy asab tizimi tahlil etib, tegishli javoblarni vujudga keltiradi. Agar bosh miya sharlari jarohatlansa yoki kuchli shamollab kasallikka chalinsa, normal psixik taraqqiyot buziladi, miyada murakkab nerb aloqalari va murakkab psixik jarayonni umumilshtirish va tushunish qobiliyati buziladi. Miya faoliyatining og'ir kasallanishi va murakkab nerb jarayoning buzilishi aqliy zaiflikning fiziologik manbai xisoblanadi.

2. Bolaning normal jismoniy o'sishi ba nerb jarayonlarining normal tonusi;

- agar nerv tonuslari shamollasa yoki jarohatlanish natijasida buzilish ro'y bersa, nerb faoliyatida tormozlanish va ko'zlanish jarayonlari bo'lmaydi.

Bunday bolalar tez achchiqlanadi, tajang, har bir tasirga ters va qo'pol javob beradigan bo'lib, bunday bolalar aqliy taraqqiyotda tengdoshlaridan orqada qola boshlaydi, natijada o'zlashtirishmaydiganlar qatoridan joy oladi. Ular bilan maxsus davolash, sog'lomlashtirish va tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishi bazilarini esa davolash sog'lomlashtirish muassasalariga yuborish lozim.

3. Bolaning tashqi dunyo aloqasini tamillovchi sezgi organlarining saqlanishi;

- o‘z-o‘zidan malumki, ko‘rish va eshitish kamchiligi, zehni pastlikka olib kelmasa ham, nutqiy taraqqiyotning boshlang‘ich davrida chala eshitadigan bolalar o‘qish faoliyatining dastlabki davridanoq orqada qola boshlaydilar.

4. Bolalarning bog‘cha, maktab va uyda davomli va izchil o‘qitilishi;

- masalan, bolaning to‘g‘ri yozishga o‘rgatish uchun so‘zni tahlil qilish , tovushlarni sintez qilishga o‘rgatiladi . Shunday qilinsa, savodli yozish malakasi shakllanib boradi. Matematik amallarni o‘rgatishda bazi bolalar amallarni bajarishga qynaladilar tengdoshlari og‘zaki bajaradigan amallarni u barmoq yoki qo‘l bilan bajaradi. Bunday bolalarga o‘qituvchi tomonidan o‘z vaqtida va sistemali yordam ko‘rsatilmasa, ular o‘z tengdoshlaridan taraqqiyotda ham, fan mavzularini o‘zlashtirishda ham orqada qolishlari mumkin. O‘zlashtirmaslikning sabablarini bilish, ayniqsa 1- sinf o‘zlashtirmaslik sabablarini aniqlash bolaning kelajak taqdiri, o‘qiyotgan sinf va maktabning obroyi, o‘qituvchining shu sinfda namunali ijodiy ishlar olib borishi uchun katta ahamiyatga egadir. Zehni past bolalarning o‘zlashtirmaslik sabablarini to‘g‘ri aniqlab, to‘g‘ri pedagogik tavsifnomasi yozib, uni saralash komissiyalariga taqdim etish uchun o‘qituvchidan bu haqda tushunchaga ega bo‘lish talab etiladi. Agar zehni pastligi natijasida o‘zlashtirmayotgan o‘quvchi haqida noto‘g‘ri xulosa chiqarish natijasida aqli zaif bolalarini umumtalim maktablarda o‘qitish, oshna-og‘aynigarchilik yo‘li bilan sinfdan-sinfga ko‘chirish xollari hozir ham davom etib turibdi. Bunday bolalar normal maktablarda o‘z aqliy taraqqiyot darajasiga mos ravishda bilim va ko‘nikma ololmaydilar, umumtalim maktab dasturini o‘zlashtira olmay orqada qola boshlaydilar. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘zlashtirmaslik sabablarini haqida yaxshi tushunchaga ega bo‘lishlari kerak. Shundagina aqliy kamchilik bo‘lgan bolaning tegishli joylarga tavsija qila oladilar.

Shuni alohida ta’kidlash joizki umum ta’lim maktab o‘quvchilarining fanlarni o‘zlashtirmaslik sabablarini to‘g‘ri aniqlab, to‘g‘ri pedagogik tavsifnomasi yozish va uni saralash kamissiyasiga taqdim etish uchun o‘qituvchilar bu xaqda yetarli tushunchaga ega bo‘lishlari kerak. Shu nuqtai nazardan ham Pedagogika Universitet va institutlararida Pedagogika, Psixologiya, Boshlangich ta’lim, Musiqa ta’limi va Maktabgacha ta’lim yo‘nalishlarida Maxsus pedagogika va Logopediya fanlarini ukuv rejaga kiritib, o‘tilishini qayta yo‘lga kuyish zarur deb hisoblayman. Negaki barcha pedagog kadrlar o‘quvchilarda uchrab turadigan nuqsonlarni vaktida aniqlab correksiya kilish ishlarini to‘g‘ri yo‘lga kuygan bo‘lar edi.

Pedagogika yo‘nalishni bitiruvchi bulajak pedagoglarimiz o‘quvchilarining fanlarning o‘zlashtimaslik sabablarini aniqlab o‘z vaktida amaliy yordam kursatsalar ularning har tomonlama yetuk komil inson bo‘lib voyaga yetishlariga zamin yaratilgan bo‘lur edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Asta, Rauduvaita., Chjiyun, Yao. (2023). Musiqa tallimida hissiyotlarning o‘rni: nazariy tushunchalar. Sabiedriba, integraciya, izglitiba, 1:491-502. doi: 10.17770/sie2023vol1.7078

Mark, Tompson., Xuan, Ignacio, Mendoza., Jeoff, Luck., Jonna, K., Vuoskoski. (2023).

Musiqiy ijroda tovush va harakat xususiyatlari, idrok etuvchi his-tuyg'ular o'rtaсидаги bog'liqlik. Musiqa va fan, doi: 10.1177/20592043231177871
Aijing, Qiu., Junrong, Ban., Lingbowen, Kong., Rui, Tian., Lei, Zhou. (2018). 12. Skillful Performance with Sentiment Based on Integration of Four Expressions "Lyrics, Melody, Voice and Form". International Journal of Information and Education Technology, doi: 10.18178/IJIET.2018.8.8.1107

